

**MAHMUD ZAMAXSHARIYNING “ASOSU-L- BALOG‘A” ASARI: ARAB  
TILSHUNOSLIGI VA BALOG‘AT ILMINING NOYOB NAMUNASI**

*Salimova Sitara-Bonu Nuritdin qizi*

*“Ziyo-zukko umumta’lim maktabi” NTM arab tili o‘qituvchisi,*

*Xalqaro islom akademiyasi tayanch doktoranti*

[sitora9353@gmail.com](mailto:sitora9353@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada buyuk mutafakkir va tilshunos Mahmud Zamaxshariyning “Asosu-l-balog‘a” asari tahlil qilinadi. Asarning arab tilshunosligi va balog‘at ilmi rivojidadagi o‘rni, tuzilishi, ilmiy-uslubiy yondashuvlari, so‘zlarning semantik va majoziy ma’nolari, shuningdek, asarda ishlatilgan manbalar asosida tahlil beriladi. Zamaxshariyning lug‘atshunoslikdagi uslubi, tilning fasohat va balog‘at jihatlarini yoritishda tutgan yondashuvi zamonaviy tilshunoslik nuqtayi nazaridan ham tahlil etiladi. Maqolada “Asosu-l-balog‘a” asarining lug‘atshunoslikda tutgan o‘rni, uning uslubiy yangiliklari va boy ilmiy merosi yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Mahmud Zamaxshariy, “Asosu-l-balog‘a”, arab tilshunosligi, balog‘at ilmi, lug‘atshunoslik, fasohat, semantika, Qur‘on, hadis, frazeologizm, maqol, she‘riy parchalar.

Mahmud Zamaxshariy — o‘rta asrlar arab tilshunosligi va adabiyoti sohasida muhim shaxs hisoblanadi. U nafaqat mashhur tafsirchi va hadisshunos, balki arab tilshunosligi va balog‘at ilmining rivojiga ulkan hissa qo‘shgan olimdir. Uning “Asosu-l-balog‘a” asari, arab tilining grammatikasi va lug‘atshunosligiga oid ulkan ilmiy meros sifatida tilshunoslar tomonidan e’tirof etilgan. Asar tilning nafaqat grammatika, balki uning leksik tarkibiga oid muhim nazariyalar va tushunchalarni o‘z ichiga olgan. Zamaxshariyning lug‘atshunoslikka bo‘lgan qarashlari, shu davrning ilmiy an‘analari bilan bog‘liq bo‘lib, u tilning o‘zaro aloqalarini, o‘zgarishlarini va rivojlanishini tasavvur etishda yangi bir nazariy yondashuvlarni taklif etgan.

Zamaxshariyning “Asosu-l-balog‘a” asari, arab tili haqidagi ilmiy tafakkurni o‘zgartirishda muhim rol o‘ynadi. Olim arab tilining leksik tarkibini tahlil qilib, so‘zlarning etimologiyasi, semantikasini va qo‘llanilishini ilmiy asosda izohlagan. U, shuningdek, so‘zlarning o‘zaro aloqalarini, ma’nolarining o‘zgarishini va til o‘zgarishlarini chuqur o‘rgangan.

Asar arab lug‘atshunosligida ham muhim ahamiyatga ega asar sifatida e’tirof etiladi. A.Rustamovning fikricha, “Zamaxshariy o‘zining “Asosu-l-balog‘a” asari bilan arab lug‘atshunosligini bir necha pog‘ona yuqori ko‘targan”. Zamaxshariy mazkur lug‘atda so‘zlarni ularning barcha o‘zak undoshlarini hisobga olgan holda alifbo tartibida joylashtirgan. Shu bilan birga, lug‘atdagi so‘zlarni o‘sha davrda

iste'molda bo'lgan jumla va iboralar tarkibidan ajratmagan holda bergan. Bu usul so'z ma'nolarini har tomonlama va batafsil izohlash uchun o'ziga xos zamin yaratadi.

Mahmud Zamaxshariy "Asos-ul-balog'a"da arab adabiy tilining fasohatini aks ettirishga harakat qilgan. Lug'atning muqaddima qismida yozishilicha, muallif bu usul bilan u so'zga chechan kishilar, yetuk adiblar yetishtirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Aynan shuning uchun u o'z asarini "اساس البلاغة", ya'ni "Balog'at asoslari" deb nomlagan. Lug'at arab alifbosiga muvofiq 28 harfga bo'lingan bo'lib, 3742 ta lug'at maqolani o'z ichiga oladi. Muallif har bir harf qismini «bob» deb nomlagan. Boblar esa o'z navbatida so'zning ikkinchi o'zak undoshiga muvofiq ajratilgan va ular "fasl" deb nomlangan.

Mahmud Zamaxshariyga mazkur asarni yaratishda uning tilshunoslik, lug'atshunoslik, adabiyotshunoslik, tarix kabi sohalarda to'plagan bilim va tajribalari yaqindan yordam bergan. V.M.Belkinning fikriga ko'ra, "odatda o'z lug'atlarida arab tili leksikasining sofligini qayd etgan va uni kafolatlagan lug'atshunoslar grammatik masalalar bilan shug'ullanmaganlar. Faqatgina Mahmud Zamaxshariy ham grammatika, ham lug'atshunoslikda original asarlar yarata olgan"<sup>1</sup>.

Mahmud Zamaxshariy tomonidan rivojlantirilgan lug'at maqolalarni alifbo tartibida berish usuli bugungi kun lug'atshunosligida keng qo'llanilmoqda.

"Asosu-l-balog'a" lug'ati nafaqat Mahmud Zamaxshariyning leksikografik merosida, balki an'anaviy arab lug'atshunosligining rivojlanish tarixida ham alohida ahamiyat kasb etadi. Shu o'rinda Fozil Solih as-Samaroiy shunday deydi: "Asosu-l-balog'a" boshqa lug'atlardan ajralib turadigan lug'atdir. Undan avval ham, keyin ham lug'atshunoslik ilmida bunday uslubda lug'at tuzilmagan. Bu lug'at so'zlarning joylashtirilishi osonligi bilan ajralib turadi. Shu boisdan boshqa lug'atlar uning o'rnini bosa olmaydi. Agar boshqa lug'atlar o'z kuchini yo'qotsa ham, "Asosu-l-balog'a" o'z kuchida qoladi".

"Asosu-l-balog'a"da jami 3742 ta lug'at maqola bo'lib, ular tarkibiga ko'ra quyidagi qismlardan iborat:

- a) bosh so'z;
- b) bosh so'zning asosiy ma'nosi;
- v) bosh so'z hosilalari (fe'llarning boblari (o'tgan va hozirgi zamon), aniq va majhul daraja sifatdoshlari, masdarlari va hokazo) ishtirok etgan jummlar;
- g) bosh so'zni izohlash uchun qo'llanilgan Qur'on oyatlari, hadislar, xalifa va sahobalarning so'zlari, she'riy asarlardan olingan parchalar, frazeologizmlar, maqollar;
- d) so'zning majoziy ma'nosi;
- e) bosh so'z majoziy ma'noda ishlatilgan jummlar.

“Asosu-l-balog‘a”da lug‘at maqolalarni hajmiga ko‘ra qisqa lug‘at maqolalar, o‘rtacha hajmga ega lug‘at maqolalar hamda uzun lug‘at maqolalarga ajratish mumkin. Asardagi umumiy lug‘at maqolalar 3742 tadan iborat bo‘lsa, ulardan 480 tasini qisqa lug‘at maqolalar tashkil etadi. Qisqa lug‘at maqolalar hajman kichik bo‘lib, ularda bosh so‘zning ma‘nosi bir yoki ikki jumla bilan izohlangan. Bosh so‘zning faqatgina haqiqiy ma‘nosi berilgan. “Asosu-l-balog‘a”dagi qisqa lug‘at maqolalarni tashkil etuvchi bosh so‘zlarning aksariyati o‘sha davrda nisbatan kam ishlatiladigan so‘zlardan iborat bo‘lgan.

O‘rtacha hajmdagi lug‘at maqolalarda qisqa lug‘at maqolalardan farqli o‘laroq, bosh so‘zning haqiqiy ma‘nosi bilan birga majoziy ma‘nosi ham berilgan. So‘zlarni izohlashda illyustrativ materiallardan kam foydalanilgan.

Uzun lug‘at maqolalarda bosh so‘zning hamma ma‘nolari aks etadi. Ularning izohi yarim betdan ikki betgacha bo‘lishi mumkin. Bunday lug‘at maqolalarning deyarli barchasida so‘zning haqiqiy ma‘nosi bilan birga majoziy ma‘nosi ham izohlangan bo‘ladi.

Mahmud Zamaxshariy so‘zlarni asosan quyidagi manbalarga tayangan holda izohlagan. Ular: Qur‘on, hadis, frazeologizmlar, maqollar va she‘riy parchalar. “Asosu-l-balog‘a”dagi 447 ta misol Qur‘ondan olingan. Bu hodisa Qur‘onning o‘sha davrda ham adabiy, ham ilmiy manba sifatida keng iste‘molda bo‘lganini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, lug‘atda so‘zlarni izohlashda payg‘ambar Muhammad (s.a.v.) hadislaridan ham keng foydalanilgan. Hadislar asosan ta‘lim-tarbiyaga, odob-axloqqa doir bo‘lib, pand-nasihatlarga boy bo‘lganligi sababli olim ulardan mohirona foydalangan.

“Asosu-l-balog‘a”da so‘zlarning ko‘chma ma‘nolarini izohlashda frazeologizm va maqollar asosiy manba bo‘lib xizmat qilgan. Ularning bir qismi hozirga kelib iste‘moldan chiqqan bo‘lsa, bir qismi arab adabiyotida hozirgacha ishlatiladi. Shu bilan birgalikda, lug‘at maqolalarda so‘z ma‘nolarini ochishda XI-XII asrda yashab, ijod qilgan yaqin shoirlarning asarlaridan olingan. she‘riy parchalardan foydalanilgan.

“Asosu-l-balog‘a” asari Zamaxshariyning arab tili balog‘ati, uning grammatik xususiyatlarini mukammal bilishini ko‘rsatadi. Muallif asarda mavjud bosh so‘zlarning nozik farqlariga ham e‘tibor bergan holda izohlagan. Olim arab tili bilan bog‘liq bo‘lgan barcha ilmlarni, Qur‘on, hadis, frazeologizmlar, maqollar, arab shoirlarining asarlarini mukammal bilgan va ulardan o‘z asarlarida keng foydalangan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ADABIYOTI:

1. الزمخشري. اساس البلاغة. تحقيق محمد باسل عيون السود. ج. ١. - بيروت - لبنان: دار الكتب العلمية، ١٩٩٨ - ٧١٩ ص

الزمخشري. اساس البلاغة. تحقيق محمد باسل عيون السود. ج. ٢. – بيروت – لبنان: دار الكتب

العلمية، ١٩٩٨ – ٦٦٩ ص

3. Белкин В. М. Арабская лексикология. – М.: Издательство Московского университета, 1961. – 200 с.

4. Abu-l-Qosim Mahmud az-Zamaxshariy. Nozik iboralar Sharhlar muallifi va tarjimon U. Uvatov. – T.: Kamalak, 1992. – 80 b.

5. Rustamov A. Mahmud Zamaxshariy. – T.: Fan, 1971. – 32 b.

6. Fozil Solih as-Samaroiy. Ad-dirasat-in-nahviyya va-l-lug‘aviyya ‘inda-z-Zamaxshariy. – Bag‘dod, 1970. – 142 b.

7. Islomov Z. M. Mahmud Zamaxshariyning «Muqaddamatu-l-adab» asarida turkiy fe'llar tahlili. Fil. fan. nomz. diss. – T.: 1993. – 161 b.

8. Islomov Z. M. Mahmud Zamaxshariyning «Muqaddamatu-l-adab» asarining qo‘lyozma manbalari va arabcha-turkiy fe'llar so‘zligining yig‘ma ilmiy-tanqidiy matni (Toshkent qo‘lyozmalari asosida). Fil. fan. dok. diss. – T.: 1998. – 234 b.

9. Sulaymonova N.A. Mahmud Zamaxshariy «Asos-ul-balog‘a» asarining manbashunoslik tadqiqi. PhD diss. - t.: 2007. -198 b.